

O'ZBEKISTON-AFG'ONISTON ALOQALARI TARIXI: O'ZARO ISHONCH VA MANFAATLAR UYG'UNLIGI

Aripov Dilshod Ne'matovich,

Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi

HISTORY OF UZBEKISTAN-AFGHANISTAN RELATIONS: MUTUAL TRUST AND HARMONIZATION OF INTERESTS

Aripov Dilshod Ne'matovich,

Lecturer, Faculty of History, Termez State University

ИСТОРИЯ УЗБЕКИСТАНО-АФГАНСКИХ ОТНОШЕНИЙ: ВЗАИМНОЕ ДОВЕРИЕ И СООТВЕТСТВИЕ ИНТЕРЕСОВ

Арипов Дилишод Нематович,

*преподаватель исторического факультета
Термезского государственного университета*



dilshod.aripov@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-2463-7228>

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi tarixiy va zamonaviy siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy e'tibori ikki davlat o'rtasidagi o'zaro ishonch, strategik manfaatlar va mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Maqolada diplomatik munosabatlarning rivojlanishi, savdo-iqtisodiy hamkorlik, chegara hududlarida xavfsizlik va qo'shma loyihalar misolida amaliy hamkorlik masalalari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zaro ishonch va manfaatlar uyg'unligi O'zbekiston-Afg'oniston aloqalarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Abstract: The article examines the historical and contemporary political, economic, and cultural relations between Uzbekistan and Afghanistan. The study focuses on mutual trust, strategic interests, and strengthening regional stability. The development of diplomatic relations, trade and economic cooperation, security in border areas, and joint projects are analyzed as examples of practical collaboration. The findings indicate that mutual trust and harmonization of interests are crucial factors ensuring the long-term stability of Uzbekistan-Afghanistan relations.

Key words: Uzbekistan-Afghanistan relations, mutual trust, strategic interests, regional stability, diplomatic cooperation, economic cooperation.

Kalit so'zlar: O'zbekiston-Afg'oniston aloqalari, o'zaro ishonch, strategik manfaatlar, mintaqaviy barqarorlik, diplomatik hamkorlik, iqtisodiy hamkorlik.

Аннотация: В статье анализируются исторические и современные политические, экономические и культурные отношения между Узбекистаном и Афганистаном. Основное внимание уделено взаимному доверию, стратегическим интересам и укреплению региональной стабильности. Рассматриваются развитие дипломатических отношений, торгово-экономическое сотрудничество, вопросы безопасности на приграничных территориях и совместные проекты в качестве примеров практического взаимодействия. Результаты исследования показывают, что взаимное доверие и гармония интересов являются ключевым фактором долгосрочной устойчивости узбекско-афганских отношений.

Ключевые слова: узбекско-афганские отношения, взаимное доверие, стратегические интересы, региональная стабильность, дипломатическое сотрудничество, экономическое сотрудничество.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlar nafaqat geografik yaqinligi, balki tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari tufayli ham juda muhim ahamiyatga ega. Mintaqaviy barqarorlik, xavfsizlik va iqtisodiy rivojlanish masalalari har doim ikki mamlakatning strategik manfaatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Shuning uchun O'zbekiston-Afg'oniston munosabatlari nafaqat ikki tomonlama diplomatik aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida, balki mintaqaviy integratsiya va o'zaro ishonch tizimini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida ham muhimdir. So'nggi yillarda ikki mamlakat o'rtasida transport va logistika, energetika va ta'lim sohalarida savdo-iqtisodiy hamkorlik sezilarli darajada o'sdi. Chegara hududlarida xavfsizlik va tinchlikni ta'minlash hamda qo'shma loyihalar orqali amaliy hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Ushbu jarayonlar ikki tomonlama ishonch va strategik manfaatlarni uyg'unlashtirish orqali mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi tarixiy va zamonaviy munosabatlarni tahlil qilish va ularni o'zaro ishonch va uyg'un manfaatlar kontekstida rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlashdir. Tadqiqot natijalari ikki mamlakat o'rtasidagi diplomatik, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi hamkorlikni yaxshiroq tushunish, shuningdek, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo'shadigan strategik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, maqolada O'zbekiston-Afg'oniston munosabatlarining tarixiy ildizlari, turli davrlarda yuzaga kelgan siyosiy va ijtimoiy sharoitlar va zamonaviy aloqa mexanizmlari o'rganiladi. Bu esa tadqiqotni nafaqat tarixiy nuqtai nazardan, balki zamonaviy mintaqaviy rivojlanish nuqtai nazaridan ham dolzarb qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДЫ / MATERIALS AND METHODS).

O'zbekistonning Afg'oniston bilan umumiy chegarasi 137 kilometrdir. O'zbekistonning Afg'oniston bilan aloqalar tarixiga nazar solinsa, bu aloqalar o'tmishda ikki davlat bir butun hudud hisoblangan davrlarga borib taqaladi. 1991-yilda Sovet Ittifoqi qulagach, O'zbekiston mustaqillikka

erishdi. Shu paytdan so'ng, Afg'oniston mustaqil O'zbekistonni birinchi tan olgan mamlakatlardan biri bo'ldi va bir yil o'tib, Burhonuddin Raboniy prezidentligi davrida Afg'onistonning O'zbekistondagi elchixonasi rasmiy ravishda ochildi [1].

2001-yildan keyingi davrda O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasida iqtisodiy va savdo aloqalarini rivojlantirish maqsadida bir qator shartnomalar imzolandi. Ushbu shartnomalarga binoan O'zbekiston tranzit, energetika, yo'l qurilishi, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarida Afg'onistonga katta yordam berdi.

Katta loyihalardan biri O'zbekiston elektr tarmog'ini Kobulga ulash va Afg'onistondagi birinchi temir yo'lni qurish bo'ldi. Ushbu temir yo'l Termiz shahridan Mozori-Sharif va Hayraton portigacha yetib boradi. 2000-yillardan keyin Afg'oniston O'zbekistondan boshqa qo'shni davlatlarga nisbatan eng ko'p elektr energiyasini import qilgan [2].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Afg'oniston va O'zbekiston qo'shni mamlakat bo'lish bilan birga, diniy, madaniy, etnik va tarixiy jihatdan o'xshashliklarga ega. Ikkala mamlakat ham umumiy manfaatlariga ega va shu asosda yaqin aloqalarga muhtoj. O'zbekiston-Afg'oniston aloqalarini yaxshilashda Afg'oniston Milliy Ittifoq hukumatining tashkil topishi muhim rol o'ynadi. Shu davrda O'zbekiston Afg'oniston prezidenti Ashraf G'ani uchun tashqi siyosatda muhim mamlakatlardan biri bo'ldi. Bu davrda iqtisodiy, tranzit va boshqa sohalarida ikki davlat aloqalarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, Milliy Ittifoq hukumatining O'zbekiston bilan elektr energiyasini 10% ko'paytirish, bug'doy sotib olish, tranzit va savdoni kengaytirish kabi sohalarida shartnomalar imzolashi Afg'onistonga boshqa davlatlar orqali tovarlar va importni yetkazishdagi cheklovlardan qisman xalos bo'lish imkonini berdi [3].

Afg'oniston quruqlik bilan o'ralgan davlat sifatida, savdo yo'llari va qo'shni davlatlar bilan transport aloqalariga muhtoj. Hozirgi kunda ikki davlatning yillik savdo hajmi oshib borayotgan bo'lsa-da, aloqalarni rivojlantirish va hamkorlikni mustahkamlash orqali ikki tomonlama savdo sezilarli darajada oshishi mumkin. Shu bilan birga, O'zbekiston ham quruqlik bilan o'ralgan va

Afgʻoniston unga dengizga chiqish imkonini beruvchi eshik hisoblanadi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Oʻzbekiston prezidenti sifatida tashqi siyosatda ahil qoʻshnichilik tamoyillarini mustahkamlashga alohida ahamiyat qaratmoqda. Bu holat Afgʻoniston bilan oʻzaro munosabatlarda ham yaqqol koʻzga tashlanadi. Yurtboshimiz mintaqa davlatlari, xususan Afgʻoniston bilan aloqalarni yaxshilashni maqsad qilgan, bu esa ikki davlat aloqalarini kengaytirish imkoniyatini yaratadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

2021-yilda Oʻzbekiston tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Kamilovning Kobulga safari davomida ikki mamlakat turli sohalarida beshta hamkorlik shartnomasini imzoladi. Bu shartnomalar giyohvand moddalarga qarshi kurash, tashqi ishlar vazirliklari hamkorligi, transport infratuzilmasini rivojlantirish, qoʻshma xavfsizlik komissiyasi va harakat rejalarini oʻz ichiga oladi.

Afgʻoniston-Oʻzbekiston savdo-sotiq munosabatlarini rivojlantirish maqsadida Kobulda “Afgʻoniston–Oʻzbekiston Savdo uyi” ochildi, shuningdek tez yordam mashinalari, dori-darmon, elektr va qurilish buyumlarini sotib olish boʻyicha shartnomalar imzolandi. Ushbu shartnomalar Toshkent-Kobul aloqalarida yangi bob ochib, iqtisodiy ahamiyatga ega boʻldi. Zero, Afgʻoniston Oʻzbekiston uchun Janubiy Osiyoga chiqish imkonini beruvchi koʻpriq hisoblanadi [4].

Eʼtibor beradigan boʻlsak, soʻnggi yillarda Afgʻoniston va Oʻzbekiston savdo va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish maqsadida koʻplab loyihalar va kelishuvlarga imzo chekdi. Shu jumladan, Termizda xalqaro savdo markazi tashkil etildi.

Afgʻoniston va Oʻzbekiston munosabatlari, qoʻshnichilik, umumiy tarix va mintaqaviy manfaatlar nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. Oʻzbekiston Markaziy Osiyodagi asosiy kuchlardan biri sifatida Sovet Ittifoqi qulashidan keyin Afgʻoniston bilan neytral va doʻstona siyosat yuritdi va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga eʼtibor qaratdi [5].

Siyosiy maydonda Oʻzbekiston Afgʻoniston ichki ishlariga aralashmasdan, diplomatik va doʻstona munosabatlarni saqlaydi va iqtisodiy diplomatiya orqali mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni taʼminlashga intiladi. Koʻplab uchrashuvlar va muhim kelishuvlar tomonlarning munosabatlarni mustahkamlashga jiddiy intilishidan dalolat beradi. Afgʻon-Trans-Oʻzbek temir yoʻli, qoʻshma savdo bozorlari va koʻrgazmalar loyihalari ikki davlatning yanada yaqinlashishini koʻrsatadi [6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Umuman olganda, XXI asrda Oʻzbekiston va Afgʻoniston munosabatlari siyosiy, xavfsizlik va iqtisodiy sohalarida yanada chuqurlashmoqda va bu hamkorlik boshqa mintaqa davlatlari uchun ham model boʻla oladi. Oʻzbekiston muvozanatli siyosat yuritib, umumiy manfaatlarni saqlash va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga intilmoqda va Markaziy Osiyoning barqarorligi va rivojlanishida muhim rol oʻynashga harakat qilmoqda.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Arnold, A. Afghanistan: The Soviet Invasion in Perspective. – Stanford: Hoover Institution Press, 1981. – 123 p.
2. Barfield, T. Afghanistan: a Cultural and Political History. – New Jersey: Princeton University Press, 2010. – 389 p.
3. Misdaq N. Afghanistan: Political Frailty and External Interference. – London and New York: Routledge. 2006. – 351 p.
4. Rashidov R. Afgʻonistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon. Monografiya. – Toshkent: Navroʻz, 2017.
5. Бобокулов И.И. Афганская трансформация: приоритеты и ключевые проблемы / Центральная Азия и Кавказ, Том 16, Выпуск 2, 2013.
6. Рашид А. Талибан. Ислам, нефть и новая Большая игра в Центральной Азии. – М., 2003.